ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ ТЎПЛАМИ



№11

25-ФЕВРАЛЬ

2021

www.openscience.uz

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN 2181-0842

ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

11-КОНФЕРЕНЦИЯ ТЎПЛАМИ
25 ФЕВРАЛЬ 2021 ЙИЛ

PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION

PROCEEDINGS OF 11TH CONFERENCE
25 FEBRUARY 2021

www.openscience.uz

SCIENCE AND EDUCATION
SCIENTIFIC JOURNAL

Executive Secretary
Tusmatova Nozima Inomovna

Editorial board
Z.Yaxshieva
Jizzakh state pedagogical institute, doctor of chemical sciences
B.Qushimov
Kokand branch of tashkent state technical university, doctor of technical sciences
Sh.Akramova
Military-technical institute of the national guard, doctor of pedagogical sciences
B.Sultonov
Tashkent pharmaceutical institute, doctor of technical sciences
A.Sidiqov
Tashkent institute of chemical technology, doctor of chemical sciences
B.Kucharov
Institute of general and inorganic chemistry of the academy of sciences, doctor of technical sciences
I.Eshmetov
Institute of general and inorganic chemistry of the academy of sciences, doctor of technical sciences
M.Abdullaev
Andijan state university, doctor of historical sciences
N.Jiyanova
Tashkent financial institute, candidate of economic sciences
X.Qobulov
Tashkent financial institute, candidate of economic sciences
U.Akbarov
Kokand state pedagogical institute, candidate of physical and mathematical sciences
A.Nabiev
Tashkent institute of chemical technology, PhD in technical sciences
M.Voxidova
Tashkent state institute of oriental studies, PhD in economics

Масъул котиб
Тусматова Нозима Иномовна

Тахририят
З.Яхшиева
Жиззах давлат педагогика институти, кимё фанлари доктори
Б.Қушимов
Тошкент давлат техника университети Қўқон филиали, техника фанлари доктори
Ш.Акрамова
Миллий гвардия ҳарбий-техник институти, педагогика фанлари доктори
Б.Султонов
Тошкент фармацевтика институти, техника фанлари доктори
А.Сидиқов
Тошкент кимё-технология институти, кимё фанлари доктори
Б.Кучаров
Фанлар академияси Умумий ва ноорганик кимё институти, техника фанлари доктори
И.Эшметов
Фанлар академияси Умумий ва ноорганик кимё институти, техника фанлари доктори
М.Абдуллаев
Андижон давлат университети, тарих фанлари доктори
Н.Жиянова
Тошкент молия институти, иқтисод фанлари номзоди
Х.Қобулов
Тошкент молия институти, иқтисод фанлари номзоди
У.Акбаров
Қўқон давлат педагогика институти, физика-математика фанлари номзоди
А.Набиев
Тошкент кимё технология институти, техника фанлари PhD
М.Вохидова
Тошкент давлат шарқшунослик институти, иқтисодиёт фанлари PhD

TABLE OF CONTENTS / МУНДАРИЖА

NATURAL SCIENCES / ТАБИИЙ ФАНЛАР

1. G’ofurova Umida O’tkirbek qizi, Zoirova Gavxarxon Xusanboyevna
SHIZOFRENIYANI DAVOLASH MUMKINMI? 5

TECHNICAL SCIENCES / ТЕХНИКА ФАНЛАРИ

2. Қурбонов Бахтиёр Нематуллаевич, Отамуродов Ўткир Аъзамович
ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ ВА МАСОФАДАН ЗОНДЛАШ МАТРЕАЛЛАРИ ЁРДАМИДА КАДАСТР КАРТАЛАРИНИ ЯНГИЛАШ 8
3. Нарзуллаева Сауле
БЛОКЧЕЙН. СТОИТ ЛИ ДОВЕРЯТЬ НОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ? 11
4. Ўғилой Авазбекова
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ 14

PEDAGOGY / ПЕДАГОГИКА

5. Ibragimov Sanjarbek Hoshim o’g’li, Hikmatova Sadoqat Zahriddin qizi
B.T.Bisenova
USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARINING YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI 17
6. Beknazarova Nilufar Egamnazarovna
O’QUVCHILAR BILIM VA KO’NIKMALARINI BAHOLASHGA INNOVATSION YONDASHUV:MATEMATIK SAVODXONLIK 20
7. Bultakova Nilufar
KOUCHING ATAMASINING TARIXI VA UNING MOHIYATI 25
8. Djurayeva Mavluda, Xoshimova Dilnoza
EFFECTIVENESS OF USING GRAMMAR EXERCISES DURING THE LESSON 28
9. Abdurahimova Fotimahon, Axmadjanova Muxayyo
KICHIK YOSHDAGI BOLALAR XUSUSIYATLARI VA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING VOSITA VA USSULLARI 31
10. Boboyeva Muazzam Narimonovna, Otaboyeva Xurshida Saidali qizi
ENCOURAGING TEENAGERS TO IMPROVE SPEAKING SKILLS THROUGH GAMES 34
11. Badalova Odina, Mo’ydinova Shohista
ONA TILI O‘QITISH METODIKASI 37
12. Rakhimova Shakhnoza Pulatovna
THE PRACTICAL IMPORTANCE OF STUDENTS' CREATIVE SPEECH SKILLS 40
13. Roziqova Dilorom Ramazonovna, Roziqova Munira Pardayevna
BOSHLANG’ICH SINF FANLARINI O’ZARO INTEGRATSIYALASHTIRIB O’QITISHNING AHAMIYATI 43
14. Absalomov Erkinboy Ulugbek o`g`li, Soliyev Shahzodbek Baxtiyor o`g`li
SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVDA TASHQI MUHITNING ORNI 48

PHILOLOGY / ФИЛОЛОГИЯ

15. Бобокалонов Рамазон Ражабович, Паризод Фарходова Нодиржон қизи
ЛИСОНИЙ ҚОЛИП ВА НУТҚИЙ ҲОСИЛА 50

SHIZOFRENIYANI DAVOLASH MUMKINMI?

G'ofurova Umida O'tkirbek qizi
Zoirova Gavxarxon Xusanboyevna
NamDU

Annotatsiya: Shizofreniya – bu patalogik xatti-harakatlar, hissiyotlar, odamlarga bo'lgan munosabat, dunyo va haqiqatni yetarli darajada idrok etmaslik bilan tavsiflangan tanadagi ichki buzilishlar tufayli yuzaga keladigan ruhiy kasallik. Kasallikning rivojlanishi tashqi omillarga ta'sir qilish bilan bog'liq emas, paroksismal yoki doimiy kursga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: shizofreniya, kognitiv terapiya, paroksismal, febril formula, senostopatiya, paranoid, katatonik, nodifferentsiv, postshizofrenik depressiya.

Shizofreniya – bu progressiv ruhiy kasallik bo'lib, ruhiy vazifalar birligining yo'qotilishi, emotsional sferaning tubanlashuvi, fikrlashning buzilishi va aqliy faoliyatning ilg'or zaiflashishi bilan ifodalanadi. Shizofreniyaning qo'shimcha alomatlari: hayolga o'z-o'zidan keladigan fikrlar, jazavali va ipoxondrikal alomatlar, senostapatiya, aqldan ozish, psevdogollyutsinatorr buzulishlar, maniakal, depressiv, oneyroid-katatonik, katatonik alomatlar. Shizofreniyada aql-zakovat jabrlanmaydi, kasallikning boshlanishidan oldingi xotira va olingan bilimlar saqlanib qoladi. Kasallikning asosiy sabalari noma'lum. Hozirgi kunda ushbu patalogiya rivojlanishining bir necha nazariyalari mavjud bo'lib ulardan eng mashhurlari quyidagilardir: neyrotransmitterlar nazariyasi, serotanin retseptorlari nazariyasi, dizontogenetik nazariyasi va psixoanalitik nazariyasi.

Neyrotransmittarlar nazariyasi – ushbu nazariyaning yana bir nomi - dofaminli deyiladi. Ushbu gipotezaga ko'ra shizofreniya asab tizimining faolligini rag'batlantiradigan dofamin ko'p ishlab chiqarilishi natijasida rivojlanadi. Neyronlar shizofreniyaning o'ziga xos alomatlari paydo bo'lishiga olib keladigan ko'plab nerv impulslarini ishlab chiqarishni boshlaydilar. Aynan ushbu nazariyaga asoslanib, dofamin ta'siri uchun mas'ul retseptorlarni bloklash shizofreniyani davolashning bir qismi sifatida qaraladi. Shuningdek alohida nodradrenergik nazariyani ajratishati, unga ko'ra kasallik rivojlanishida dofamin, adrenalin va nodrenalin ishtirok etadi. Serotonin retseptorlari nazariyasiga ko'ra ushbu retseptorlar juda faol bo'lsa, shizofreniya belgilari qayd etilishi mumkin. Serotonin retseptorlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan dorilar ham shizofreniyani davolashda ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shizofreniya rivojlanishuning dizontogenetik nazariyasida kasallik miyada mavjud strukturaviy buzilishlar fonida rivojlanadi. Ba'zi omillar vaziyatni og'irlashtirishi(yoki rivojlanishiga turtki bo'lishi) mumkin, shu jumladan virusli va

(cc) BY

baakterial infeksiyalar va genetik kasalliklar. Shizofreniya rivojlanishining psixoanalitik nazariyasida kasallik, shaxsning “bo’linishi”dan kelib chiqadi. Bemorga uning atrofidagi barcha narsa uning sog’ligiga jiddiy tahdid solayotganiga o’xshaydi. Bunday holatda, bemorning “men”i boshqa tashqi vaziyatlar ustidan hukmronlik qila boshlaydi.

Shizofreniya rivojlanishida irsiy moyillikning roli. Hozirgacha ham olimlar shizofreniya geni deb atalmish genni aniqlay olmadilar. Shu bilan birga, ststistik tadqiqotlarga kasallik rivojlanishida irsiy omillar ham ishtirok etishi mumkinligi ko’rsatiladi. Misol uchun, so’nggi tadqiqotlar bir tuxum hujayradan rivojlangan egizaklarda kasallik 80% hollarda, turli tuxum hujayralardan rivojlangan egizaklarda esa 20% hollarda bir xil kechishini ko’rsatadi. Ota-onalaridan birida shizofreniya mavjudligi bolada patalogiya rivojlanish ehtimolini 5-12% ga oshiradi. Toksik moddalar ham kasallik rivojlanishiga olib kelishi aniqlangan. Hozirgi kunda ba’zi olimlar autointiksikatsiya nazariyasini ko’rib chiqmoqda. Ushbu gipotezaga ko’ra, shizofreniya ba’zi zaharli moddalar tufayli rivojlanishi mumkin. Xususan, shizofreniya rivojlanishida ammiak, feni birikmalari, fenokleroz va boshqa zaharli moddalarsalbiy rol o’ynashi mumkin. Jiddiy omilga miyyaga kislorod yetishmasligi ham kiradi, buning natijasida nerv hujayralarida progressiv patalogik jarayonlar rivojlanadi. Shizofreniya rivojlanishining kognitiv nazariyasiga ko’ra bemorni o’zi bilan o’zi bo’lib qolganda, mavjud bo’lmagan muammolar tufayli zix bo’lishi yoki shunchaki tashqi dunyo bilan aloqa qilmasligi kabi o’zini tutishi natijasida rivojalanadi deydi.

Shizofreniyaning turlari: tarixiy jihatdan shizofreniya katotnik, oddiy, gebrefrenik va paranoid turlarga bo’linadi. Hozirda kasallikning beshta turi mavjud: paranoid turi, tarqoq tip, katotonik tip, nodifferentsiv tip hamda qoldiq tip. Kasallikning paranoid turida turli xil jinni g’oyalar, gallyutsinatsiyalar kuzatiladi, ammo fikrlash, affektiv buzilishlar, xulq-atvor buzilishlari yuz bermaydi. Tarqaq tipida esa fikrlashning buzilishi va affektiv buzilishlar kombinatsiyasi kuzatiladi. Uni yana gebrefrenik shizofreniya deb ham atash mumkin. Katatonik tip psixomotor buzilishlar, katotonik stupor mavjud bo’lishi bilan xarakterlanadi. Nodifferentsiv tipga xos belgilar: psixotik alomatlar mavjudligi, ammo gebrefrenik, paranoid yoki katotonik tip mezonlari kuzatilmaydi. Qoldiq tipda kasallik alomatlari mavjud, ammo juda zaif ifodalangan bo’ladi. Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasida yana ikkita subtip ajratilgan: Postshizofrenik depressiya hamda Oddiy shizofreniya. Postshizofrenik depressiyada alomatlar reduksiyadan keyingi depressiv epizod yoki shizofreniyaning ba’zi belgilari kuzatiladi. Oddiy shizofreniyada salbiy alomatlarning bosqichma-bosqich rivojlanib, kasallikning og’ir shakliga o’tishi kuzatiladi. Shizofreniyaning alomatlari: Produktiv alomatlar (aqldan ozish, gallyutsinatsiyalar); Salbiy alomatlar (apatiya, irodaning yetishmasligi, abuliya); Kognitiv buzilishlar

(cc) BY

(fikrlash, e’tibor, sezish buzilishlari); bezovtalik, ruhiy tushkunlik, tashqi dunyodan ajralib qolish shizofreniya haqida oldindan xabar berishi mumkin. Shizofreniya kasalligi bilan og’rigan bemorlarda fikrlashning tarqoqligi, eshitish gallyutsinatsiyalari, nutqning buzilishi kuzatiladi. Kasallik odatda ijtimoiy izolyatsiya bilan birga keladi. Ijimoiy o’rganish buziladi, gallyutsinatsiyalar va aqldan ozish bilan bog’liq paranoid simptomatika rivojlanadi. Ba’zi hollarda odam g’aroyib holatda (katotoniya) qotib qolishi mumkin, jim bo’lib qoladi, maqsadsiz g’ayratlanib ketishi mumkin. Shizofreniyaning eng xarakterli alomatlari – bu tez-tez va uzoq muddatli bo’lishi mumkin bo’lgan gallyutsinatsiyadir. Kasallikni davolash odatda psixofarmakoteraoiya yo’li bilan amalga oshiriladi. Boshqa usullar orasida insulinkomotoz terapiya, elektrokonvulsiv terapiya va boshqalar mavjud. Psixotrop va nootropik preparatlarni tanlash (pantogam va boshqalar) kasallik kechish turi va alomatlaridagi xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. “Oligofrenopedagogika” P.M. Po’latova. “Toshkent 2014”
2. “Maxsus pedagogika” P.M.Po’latova. “Toshkent 2014”
3. “Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar” K.X.Mamedov

(cc) BY

ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ ВА МАСОФАДАН ЗОНДЛАШ МАТРЕАЛЛАРИ ЁРДАМИДА КАДАСТР КАРТАЛАРИНИ ЯНГИЛАШ

Қурбонов Бахтиёр Нематуллаевич
Тошкент архитектура - қурилиш институти
Отамуродов Ўткир Аъзамович
utkirotamurodov90@gmail.com
Автомобиль йўллари илмий-тадқиқот институти УК

Аннотация: Ушбу мақолада масофадан зондлаш орқали олинган жойнинг рақамли модели ҳамда географик ахборот тизими дастурларидан фойдаланган ҳолда кадастр карта ва планларини янгилаш масалалари келтирилган. Ҳозирги кунда масофадан олинган материаллар билан ишлаш натижасида, улардан фойдаланиб карталарни тузиш, сақлаш, зарур ҳолларда янгилаш ва қайта ишлашдаги афзалликлар ҳусусида сўз юритилган.


Калит сўзлар: географик ахборот тизимлари, масофадан зондлаш, рақамли электрон карта, махсус дастур, Global Mapper

Кириш. Ўзбекистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий барқарорлигини таъминлаш, мавжуд бозор муносабатларини янада чуқурлаштириш, иқтисодиётни модернизация қилиш вақтда ҳар бир соҳа вакиллари учун маълум бир объектнинг географик жойлашуви тўғрисидаги аниқ маълумотларни қисқа вақт ичида олиш, тўплаш, таҳлил қилиш, моделлаштириш, прогнозлаш ва бошқариш муҳим аҳамият касб этадиган омиллар ҳисобланади. Ахборот технологиялар ривожланган сари улар бизнинг ҳаётимизни ҳамма жабҳаларини қамраб олиб, шу жумладан, геоахборот тизими ва масофадан зондлаш шиддат билан ривожланиб, ҳозирги кунда кўплаб соҳаларнинг ажралмас қисмига айланиб улгурди.

Дунёда ер ресурсларини бошқариш ва улардан фойдаланиш соҳасида географик ахборот технологиялари ва масофадан зондлаш матреалларидан кенг фойдаланилмоқда. Жумладан, кадастр карталари ва планларининг маълумотларини масофадан зондлаш орқали қисқа вақтда олиш ва ҳоказо. Замонавий ГАТларнинг самарали ишлашини сайёрамиз ҳудудларини тадқиқ қилишнинг йўлдошли услубларсиз тасаввур қилиш қийин. Масофадан зондлаш - бу масофадан туриб маълумот олишни ўрганиш ёки йиғишдир. Бундай текширув ерга асосланган қурилмалар (масалан, камералар) ёки кемалар, самолётлар, сунъий йўлдошлар ёки бошқа космик қурилмаларга асосланган сенсорлар ёки камералар ёрдамида амалга оширилади.

(cc) BY

Масофдан зондлаш орқали олинган жой рельефининг рақамли модели ҳар қандай координаталар тизимига нисбатан Ер сатҳининг кўтарилиши рақамли тасвири, топографик юзанинг энг оддий шакли ва рақамли тавсифи бўлиб, ернинг ҳар қандай нуқтадаги баланд-пастлигини аниқлашда, ер сатҳининг 3D моделини тузишда, кадастр карта ва планларини яратишда фойдаланиш мумкин.




1-расм. Масофадан зондлаш

ГАТ технологияларга бўлган талаб ошганлиги сабабли, ҳозирда турли хил соҳаларга мўлжалланган ГАТ дастурлари ишлаб чиқилмоқда. Улардан бири Blue Marble Geographics инновацион хариталаш дастурий таъминот компаниясининг Global Mapper v11.01 дастури 200 хилдан ортиқ файл турларини ўқий олиш ва глобал маълумотлар баъзасига кириш имкониятларининг борлиги бундан ташқари дастур интерфайсининг соддалиги ва қулайлиги билан ҳозирги кунда бошқа геохборот тизими дастурлари орасида оммалашиб бормоқда.

Шу билан бир қаторда дастур турли форматдаги карта маълумотлари, геоахборот тизимидан олинган вектор маълумотлар асосида 2D ва 3D форматдаги карталар ишлаб чиқиш, уларни таҳрирлаш, қайта ишлаш ва чоп этиш имкониятларга эга, жойнинг контурларини ва профилларини ишлаб чиқиш, тўлдириладиган ва кесиладиган ҳажмларни ҳисоблаш, GPS қурилмасини компьютерга уланган ҳолда тўғридан-тўғри GPS маълумотларини дастурга юклаш инконияти мавжуд.

(cc) BY



2-расм.Global Mapperдастурининг ишлаш жараёни

Хулоса. Рақамли технологияларнинг энг катта ютуғи - ташкилий, молиявий ва инсон харажатларни тежаш орқали иқтисодий самарадорликни кескин равишда ошириш имкониятидир. Шу сабабли, рақамли технологиялардан кадастр карталарини яратиш ва янгилашда кенг фойдаланиш хар томонлама самаралидир. Бунинг натижасида кўплаб қулайликлар (уларни яратишга кетадиган вақт, маблағ, техник қурилмалар) иш унумдорлигига сезиларли таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кадничанский С.А. ГИС-технологии создания карт земельных ресурсов - М.: ГУЗ, 2005 й.

2. Сафаров Э.Ю. Географик ахборот тизимлари .-Т.; Университет, 2010 й.

3. Реймов П. Р., Худайбергенов Я. Г. Фазовий маълумотлар моделлари. – Тошкент, 2014 й.

4. Интернет маълумотлари:

- https://altigator.com/en/global-mapper-professional-gis-for-everyone/
- https://www.tehrantimes.com/news/425693/Remote-sensing-to-deal-with-national-strategic-challenges-official
- https://global-mapper-viewer-for-mac.peatix.com/

БЛОКЧЕЙН. СТОИТ ЛИ ДОВЕРЯТЬ НОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ?

Нарзуллаева Сауле

Развитие не стоит на месте. Технологии становятся совершеннее, алгоритмы труднее. С каждым днём появляются новые термины. На сегодняшний день один из самых популярных технологий это – блокчейн. Даже если многие не слышали про эту технологию, наверняка знают про биткоин, криптовалюты и др. На основе технологии блокчейн и был разработан первая криптовалюта – биткоин. Создание блокчейн технологии берет свое начало в 90-х годах, Стюарт Хаббер и Скотт Штоннер являются создателями этой технологии, но настоящую популярность она обрела с помощью криптовалют, в частности из-за блокчейн. Наверное, именно поэтому считают, что блокчейн используется только в криптовалютах. Но разработчики во всём мире доказали иное. Интерес к криптовалютам растет с каждым днем. В том числе и к новой технологии, которая по версии разработчиков даст новые возможности. Но какую же функцию выполняет блокчейн? Для чего она нужна?

Блокчейн - новая технология, которая в скором времени может изменить способы интернета, как это сделало программное обеспечение с открытым исходным кодом. Блокчейн понадобится некоторое время, чтобы утвердится и быть оцененным. Блокчейн является распределительной P2P (peer to peer - компьютерная сеть, где все участники равны), каждый может видеть, как входит другой, какую операцию выполняет, но не может это изменить. Самый первый блок называется родительной, в сеть добавляют задачу на основе хэш-функции предыдущего блока, как только задача будет выполнена появится следующий блок. Внутри блока находятся транзакции. Т.е. определенные действия. Блоки между собой соединяются последовательно. Хэш-вычесления выполняются с помощью хеш-функции SHA-256. В некоторых приложениях за правильное вычисление хэш-функции, если оно конечно правильное, ввыплачивается денежное вознаграждение. Сумму выигрыша определяет сам разработчик.

В чём же проявляется этот интерес? Эффективность. Высокий уровень безопасности. Прозрачность действий. Некоторые крупные компании уже применяют возможности этой технологии в своих разработках. Но конечно же есть и те, кто не торопятся доверять новшеству. Мнения разделились на положительные и отрицательные.

Рассмотрим положительные качества.

Как говорилось в ранее, блокчейн обеспечивает прозрачность, т.е. вы можете наблюдать кто и какое действие совершил, но в то же время никто не сможет вносить изменения в уже существующий блок. Все данные сохраняются

(cc) BY

в самих блоках. Это как новый тип базы данных. И чтобы изменить одну из них придётся внести изменения во все предыдущие блоки, а это невозможно. К тому же используется криптографическая защита данных. Используя эту технологию, можно избавиться от посредников между пользователями. Как прогнозируют ведущие ИТ специалисты, многие профессии, такие как юристы, адвокаты, секретари перестанут быть востребованными, если начать пользоваться этой технологией. Их можно просто заменить определенным кодом. Во многих странах блокчейн стали применять как оружие против коррупции и бюрократии. Примером можно взять Грузию. BitFury в совместительстве с властями Грузии, с помощью этой технологии зарегистрировали свыше 100тыс земельных участков. А это в свою очередь доказывает, что можно обойтись без посредников. Действуя напрямую с исполнителем.

Также примером можно привести проект Trade Information Warehouse компании Depository Trust & Clearing Corp. Эта компания отвечает за хранение информации о сделках. Благодаря блокчейну, любой желающий может ознакомиться с историями сделок в реальном времени. Плюс, сокращается огромное количество времени, которое сотрудники тратили для предоставления информации клиентам.

Список можно продолжать долго. Основываясь на данных, предоставленным журналом Forbes.

Но конечно же не все считают, что технология идеальна. Например, Алексей Маланов (эксперт лаборатории Касперского), считает, что блокчейн не так уж идеальна, как говорят сейчас о ней многие. Например, одна из самых больших её недостатков, клиент, который хочет вступить в сеть, должен скачать всю историю транзакций. Если конечно сеть новая, то проблем не будет. Но подумайте о такой большой сети как Биткоин. Её транзакция уже занимает больше 100 гигабайта памяти. Без скачиваний этих историй, вы не сможете реализовать свои транзакции. И так получается, что одинаковые информации хранятся в миллионах компьютерах. В конце концов у вас просто не хватит памяти на вашем устройстве.

И конечно таких мнений большинство. Финансисты, экономисты против этой технологии, в частности из-за Биткоин. Они просто не доверяют цифровой валюте.

Конечно же не один алгоритм совершенен, так и структуру блокчейн можно изменить и использовать во многих сферах, как показывает практика. Это всего лишь выбор самих разработчиков и руководителей компании, где собираются использовать эту технологию.

Лично я думаю, что с внедрением этой технологии в некоторые сферы деятельности очень сильно облегчит бумажные процедуры. А также

(cc) BY

способствует прозрачной деятельности. В связи с чем возможно исчезнет коррупция.

(cc) BY

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ

Ўғилой Авазбекова
avazbekova2021@mail.ru
Тошкент архитектура ва қурилиш институти

Аннотация: Шиддат билан ривожланаётган замонамизда, атрофда бўлаётган вокеа-ходисалардан доимо хабардор бўлиш – давар талабидир. Бироқ, бугунги глобаллашув шароитида мазкур ахборотларни фарқлаш, ёшлар орасида ахборот хавфсизлигини таъминлаш – мураккаб вазифалардан биридир. Мазкур мақолада ахборот–технологиялар ривожининг салбий оқибатлари ҳамда ёш авлод тарбиялашда ахборот хуружларидан ҳимоя қилишнинг муҳим масалалари таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: ахборот, ахборот хавфсизлиги, глобаллашув, интернет, мафкуравий иммунитет, миллий ғоя.

Ғарблик жамиятшунослардан бирининг эшитган одамнинг ёдига муҳрланиб қоладиган қуйидаги рамзий гапи мавжуд: “Агар инсоният яратилганидан тортиб то шу бугунги кунгача босиб ўтган йўлни бир метр масофа деб тасаввур қиладиган бўлсак, милоднинг 1930 йилларига қадар ўтган миллионлаб йиллар мобайнида одамзод ўша бир метрнинг бор-йўғи 15 сантиметрини босиб ўтган эди. Кейинги атиги 70-80 йил ичида эса қолган 85 сантиметр масофа яшин тезлигида босиб ўтилди”. Албатта, бу тараққиётни назарда тутувчи рамзий жумла ҳисобланади. Чунки, таъкидланган бир метрнинг ўн беш сантиметрини босиб ўтиш қанчалик машаққатли бўлганига тарих гувоҳлик бера олади. Яшин тезлиги мисол босиб ўтилган масофага тўхталадиган бўлсак, XX асрнинг 40-50 йилларидан бошлаб инсоният ўз тарихий тараққиётининг мутлақо янги босқичига қадам қўйди. Бу босқич ўз навбатида ахборот коммуникация технологиялари ва замонавий электрон воситаларининг ривожи билан боғликдир.

Таъкидлаш жоизки, ҳаёт суратлари тобора тезлашиб, глобаллашиб бораётган бугунги кунда дунёда содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар тўғрисида тез, холис ва атрофлича маълумотга эга бўлиш – давр талабидир. Бундан роппа росса бир аср олдин бўлиб ўтган, Ғофур Ғулом “Шум бола” [1] сидаги “такяхона” воқеасини эсласак, ўша пайтдаги ахборот етишмаслиги кишилар ўртасида турли хил миш-мишлар тарқалишига сабаб бўлган бўлса, бугун ахборот оқимининг жуда кенг кўламдалиги муаммо туғдирмоқда, десак муболаға бўлмайди.

(cc) BY

Шаксиз, бугун кундалик ҳаётимизда у ёки бу нарсалар ҳақидаги ахборотларнинг кўплиги ва турличалиги кишини ўйлантиради, кенгроқ мушоҳада юритишга ундаш билан бирга, уни ягона бир тўхтамга келишдан чалғитиши мумкин бўлади. Шу муносабат билан ҳам, мазкур соҳанинг ҳуқуқий жиҳатдан муҳофаза этувчи, демократик талаб ва стандартларга тўла мос келадиган, ўнга яқин қонун ҳужжатлари қабул қилинди ҳамда "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар Стратегияси" [2] V-йўналишида ахборот хавфсизлигини таъминлаш ва ахборотни ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш, ахборот соҳасидаги таҳдидларга ўз вақтида ва муносиб қаршилик кўрсатиш борасида алоҳида вазифалар белгиланган.

Дарҳақиқат, интернет гўёки катта бир кутубхонага ўхшайди. Исталган нарса ҳақидаги маълумот ёки дунёнинг нариги чеккасида чоп этилган китобни топиб ўқиш учун бир неча дақиқалар кифоя қилади. Албатта, буни катта ютуқ деб эътироф этсак, танганинг иккинчи томони, яъни бунда чекловнинг йўқлиги туфайли интернет сайтларида катта миқдорда зарарли ахборотлар: бузғунчилик, зўравонлик ва ахлоқсизлик ғояларини тарғиб қиладиган диний ақидапарастлик, террористик ва фашистик характердаги ахборот ресурслари жойлаштирилганини таасуф билан таъкидламоқ лозим.

Афсуски, бугунги кундаги ахборот–технологиялар ривожининг салбий оқибатлари ҳам мавжудлигини таъкидлаш жоиз. Ҳозирда мактаб ўқувчисидан тортиб, коллеж, лицей ва ҳатто олий ўқув юрти талабалари бўш вақтларида компютер ўйинларига муккасидан кетганлигини кўришимиз мумкин. Бир-бирини отиш, ўлдириш, чавақлаш, урушиш ва шу каби инсон ҳаётига хавф туғдурувчи ҳаракатлар асосида шаклланувчи бу ўйинлар, фақат инсон онггини заҳарлаши мумкин, холос.

Шуни қайд этиш кераккиб улар ана шу вақтда ўқиб чиқилиши мумкин бўлган, "Ўткан кунлар", "Меҳробдан чаён" нинг завқини бера олармикан? Албатта, йўқ. Унда нега китоб дўконларидаги ажойиб китобларга эмас, хорижликларнинг мияни заҳарловчи сўнгги ўйин дискларига бўлган талаб юқорилаб бормоқда? Нима учун китоб дўконларида ноёб китоблар "чанг босиб қолмоқдаю", ўйин дисклари учун олдиндан буюртмалар сони кўпаймоқда? Бу каби саволлар эртани ўйловчи кўплаб инсонларни безовта қилиши, табиий. Чунки, бу ўйинлар одамни ақлини чалғитиш билан бирга, нерв толаларига зарба беради, инсон психикасига салбий таъсир кўрсатади. Болаларни шавқатсиз, меҳрсиз бўлиб ўсишига сабаб бўлади. Комьпютер олдида мунтазам ўтириш эса кўз нурини пасайишига олиб келади.

Экспертларнинг ҳисоб-китобларига кўра, бугун бутунжахон Интернет тармоғида ўз жонига қасд қилишнинг осон йўлларини тарғиб қилувчи 9

(cc) BY

миллион, эротик мазмунга эга 4 миллиондан зиёд сайтнинг мавжудлиги ҳар биримизни мушоҳада қилишга ундаши табиий. Мутахассислар эътирофича, дунёда компьютерларга киритилган ўйинларниинг 49 фоизи зўравонлик ва ёвузликни, бешафқат урушлар, отишмалар, портлашларни тарғиб қилиш руҳида яратилган экан [3].

Ёш авлод тарбиясида шу жиҳатларни қарор топтириш керакки, улар виртуал маконда умуммиллий манфаатга хизмат қиладиган, уиинг тараққиётига ёрдам берадиган ахборотни танлай олсин. Факат шу орқалигина, глобаллашув жараёнларида ёшларнинг маълумотларга кўр-кўрона эргашиш, уларни нотўғри талқин қилишининг олди олинади. Ахборот истеъмоли маданиятига эга ёшлар, салбий ва нохолис ахборотлар таъсирига тушиб қолмайди, чунки уларда бундай ахборотларга нисбатан мустаҳкам мафкуравий иммунитет пайдо бўлган бўлади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, бугунги дунёни, инсониятнинг ҳаёт кечириш ҳудудини глобал миқёсда ўраб чирмаб бораётган ахборот тўри ичида ҳақиқатни бўҳтондан, самимиятни рўёдан ажратиш, уларнинг ҳар бири тўғрисида одилона мушоҳада юрита олиш, энг муҳими тўғри хулоса чиқара олиш учун инсонлар онгги, хусусан миллий онггини ўстириш, миллий ғоя ҳақидаги тушунчаларини такомиллаштириш ва мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш ғоят муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ғафур Ғулом. Шум бола (қисса) // URL: https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/gafur-gulom/gafur-gulom-shum-bola-qissa/

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони, 7.02.2017 // URL: https://www.lex.uz/acts/3107036

3. И.Н.Аҳмедов Ёшлар ахлоқий қиёфасига интернетнинг таъсири // URL: https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/630

USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Ibragimov Sanjarbek Hoshim o'g'li
Hikmatova Sadoqat Zahriddin qizi
B.T.Bisenova
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ustoz va shogird an'analarining yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni va roli bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy an'analar, ustoz-shogird, yoshlar ma'naviyati, hunar.

O'zbekistonning bugungi kunida yoshlarning kamolotga intilishi ma'naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. O'zbek xalqining o'tgan ajdodlari tomonidan yaratilib, meros bo'lib qolgan boyliklari xazinasida xalq orasidagi ustoz-shogird an'analari alohida o'rin olgan. Bu esa mamlakatni yuksaltirishda beqiyos xizmat qiladi.

Inson o'zi qiziqib tanlagan sohaning ustasi bo'lsa, ongli hayot kechirish uchun zarur moddiy istaklar (rizq-nasiba butunligi, dasturxon to'kinligi, qulay shart-sharoit) va ma'naviy ehtiyoj (poklanish, hayotdan mazmun va halovat topish) uyg'unligiga erishadi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda taraqqiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar xalqimizning ezgu intilishlari negizi – Barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy sohalarda ham islohotlar olib borish zaruriyati tug'ildi. Bilamizki, ustoz degan sharafli nomga hamma ham sazovor bo'lmagan. Bu ulug' nomni olish uchun ko'p yillar davomida murakkab sinovlardan o'tishi lozim bo'lgan. Ko'plab mutaxassislar orasida bu sharafli nomga kamdan-kam insonlar muyassar bo'lgan. Ammo, shunga qaramay, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarimiz o'zbek milliy an'analarini qayta tiklashda eng asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Turkiy xalqlar qadimiy madaniyatining jahon taraqqiyotidagi o'rni salmoqlidir. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, So'g'diyona, Marokant, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo'lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amur Temur va temuriyzodalardek jasur o'g'lonlar dunyoga keldilar. Ular o'z xalqining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma'nan kurashdilar. Shuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini

(cc) BY

olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o’z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e’tibor berganlar va bunga doimiy ravishda chaqirib keldilar.

Qadimda milliy an’ana bo’yicha shogirdlikning o’ziga xos odob-axloq qoidalari bo’lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: “Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so’rasalar, yettita degin: avvalo, o’z ishiga yaxshi munosabatda bo’lish, ya’ni o’z kasbini sevish; o’z kasbiga e’tiqod qo’yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo’lish, o’z nojo’ya odatlarini tark etish; ko’rish lozim bo’lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo’lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; barcha noloyiq ishlardan qo’l tortish; ustoziga zid bo’lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.

Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so’rasalar, oltita degin: rostgo’ylik; vafodorlik; mas’uliyatlilik; nasihatni quloqqa olish; ozor bermaslik; sir saqlash.

Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so’rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so’rasalar, hamkasb do’stlarini xushnud etish deb javob bergin”.

Ustoz-shogird munosabatlari ajdodlarimizning azaliy an’analaridan biri hisoblanib, ushbu an’anadan yosh avlodni tizimli kamolotga yetkazishda foydalanib kelingan. Butun mashriq zaminda ustoz- shogirdlik an’anasi chuqur hurmat, izzat-ikrom va o’zgacha oliy maqom qadriyatlar shohsupasining eng to’ridan joy olgan. Unda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi so’zlari aynan ishlatilmasa-da, ularning burch va vazifalari aks etgan. Qadimda ota onalar farzandlariga hunar o’rgatayotgan ustozni hurmat ehtirom qilganlar. Ota onalar va ustozlar o’rtasida munosabat madaniyati ham o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan.

Ota-onaning ustozga munosabati quyidagilardan tarkib topgan: ustozga muruvvat ko’rsatish; ustozning farzandga bergan tanbehini to’g’ri tushunish; farzandning hunar o’rganish uchun kerakli narsalarni yetkazib berish; ustozni rozi qilish va boshqalar talab qilinadi.

Ustozning ota-onaga ham o’ziga xos munosabat mezoni bo’lgan. Ular quyidagilardan iborat: shogirdiga hunar o’rganish borasida zimmasiga olgan vazifasini bajarish; o’z va’dasini ustidan chiqish; ota-onaga farzandining qobilyati, xulq odobi to’g’risida ochiq gapirish.

Ustoz shogirdiga qiyinchiliklar bilan hunar sirlarini o’rgatadimi, san’at olamiga olib kirdimi, uni shogird chuqur hurmat qilmog’i ham farz, ham shartdir. Ba’zida shogirdlar hunarni puxta o’rganib oldim deb kekkayib, ustozni pisand qilmay quyishadilar. Keyinchalik ular sifatsiz ishlar qilib qoqilib pushaymon yeydilar, chunki ular hunarmandchilikning qonun qoidasini bilmaganliklari tufayli har maqomga yo’rg’alab, san’atni qadirsizlantiradilar.

(cc) BY

Darhaqiqat, Mustaqillik yoshlar kamolotiga yangicha talablar ham qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'proq ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, sahovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lish kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ham talab etila boshlandi.

Binobarin, sog'lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek, sharqona axloq-odob va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan insonni ham ko'zda tutmog'i lozim. Zero buyuk alloma A.Avloniy ayganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir".

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizning oldida ustozning bergan bilim va ko'nikmalari, eng asosiysi bildirgan ishonchini oqlash, el-yurt oldida ustoz nomiga dog' tushurmaslik kabi katta mas'uliyat turadi, bu esa o'ziga xos milliylik xususiyatlarining yoshlar ma'naviyatini shakllantirishida muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Muxtorov. "Usta va shogird odobi". "Mehnat". T. 1999.
2. Internet materiallari.

(cc) BY

O'QUVCHILAR BILIM VA KO'NIKMALARINI BAHOLASHGA INNOVATSION YONDASHUV:MATEMATIK SAVODXONLIK

Beknazarova Nilufar Egamnazarovna
Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, №13 maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik savodxonlik va uning darajalari, PISA topshiriqlari tahlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Matematik savodxonlik, baholash, kompetentlik, intuitsiya.

PISA tadqiqotlarida 15 yoshdagi o'quvchilarning matematik tayyorgarligini tekshirish mazmuni matematik savodxonlik tushunchasi bilan bog'liq.

Matematik savodxonlik deganda o'quvchilarning quyidagi qobiliyatlari tushuniladi:

- atrofdagi haqiqatda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va matematikadan foydalanib hal qilish;
- bu muammolarni matematika tilida ifodalash;
- matematik faktlar va usullarni qo'llash orqali ushbu muammolarni hal qilish;
- ishlatilgan usullarni tahlilqilish;
- qo'yilgan muammoni hisobga olgan holda olingan natijalarni tushuntirish;
- natijalarni, yechimlarni shakllantirish,ularni ifodalash va qayd etish.

a) Shunday qilib, PISA topshiriqlarida o'quvchilarga odatiy bo'lmagan matematik ta'lim vazifalari taklif etilgan.Bu vazifalar atrofdagi hayotning turli jihatlariga taalluqli haqiqiy muammoli vaziyatlarga yaqin bo'lib, maktab hayoti,jamiyat,o'quvchilarning shaxsiy hayoti,kasbiy faoliyat, sport va hokazolar haqida ma'lumot beradi.Bu vazifalar ularni halqilish uchun ko'proq yoki kamroq matematikani talab qiladi.Tadqiqot kontsepsiyasiga muvofiq,har bir topshiriq turli mamlakatlardagi o'quvchilarning matematik tayyorgarligini taqqoslash uchun ishtirokchi mamlakatlarning kelishilgan qaroriga asosan tanlangan to'rtta kontentdan biriga to'g'ri keladi:

- miqdorlar;
- fazo va shakl;
- o'zgarishlar va munosabatlar;
- noaniqliklar.

O'quvchilarning matematik savodxonligi holati, tanlangan mazmun sohasining materiallariga ega bo'lishdan tashqari, "matematik kompetentlik"ning rivojlanish darajasi bilan ham tavsiflanadi. O'quvchilarning matematik kompetentligi "matematika bo'yicha bilim, ko'nikma, tajribasi va qobiliyatlari majmui" sifatida baholanib, matematikadan foydalanishni talab qiluvchi turli muammolarni

(cc) BY

muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

Tadqiqotlarda matematik kompetentlikning uchta darajasi: qayta tiklash darajasi, aloqalar o'rnatish darajasi, mulohaza yuritish darajasi belgilangan. Tadqiqotda matematik kompetentlik darajasini aniqlash uchun quyidagi faoliyat turlari aniqlanadi:

a) qayta tiklash (takrorlash),ta'riflar va hisob-kitoblar;

b) muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan aloqalar va integratsiya;

c) matematik modellashtirish, mantiqiy fikrlash,umumlashtirish va intuitsiya.

Bu faoliyat turlari o'sib, kuchayib boorish tartibida keltirilgan. Biroq, bu keying faoliyat turini amalga oshirish uchun avvalgi turlarni mohirona o'zlashtirish kerak degani emas. Masalan, matematik fikrlashni boshlash uchun hisob kitoblarni o'zlashtirish kerak emas.

1. Matematik savodxonlikning birinchi darajasi:qayta tiklash (takrorlash), ta'rifash va hisobalshlar. Birinchi darajadagi kompetensiyalar ko'plab standartlashtirilgan testlarda, shuningdek, qiyosiy xalqaro tadqiqotlar bilan, asosan, javoblarni tanlab olish topshiriqlari kabi vazifalar shaklida sinovdan o'tgan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu kompetentlik darajasi turli faktlarni bilish,xossalarni qayta tiklash, tengdosh matematik ob'yektlarni taniy olish, standart algoritm va tartiblarni amalga oshirish, standart usullari va algoritmik ko'nikmalardan foydalanish.

Misol 1. Miqdorlari teng bo`lgan ikki g`ildirakli va uch g`ildirakli velosipedlar bolalar o`yinchoq do`konida sotilmoqda. Barcha velosipedlar g`ildiraklari umumiy soni qancha bo`lishi mumkin?

A) 16; B) 24; C) 25; D) 28; E) 33.

Yechish. Ikki va uch g`ildirakli velosipedlar soni teng bo`lgani uchun ularning g`ildiraklari soni 5 ga karrali bo`lishi kerak. To`g`ri javob: C.

Misol 2. Xaridor mavsum paytida narxi 750 ming so`m bo`lgan qishki ko`ylakni arzon narxlarda sotish paytida chegirma narxida 300 ming so`mga sotib oldi. Xaridor necha foiz mablag`ini iqtisod qilgan?

A) 60%; B) 150%; C) 90%; D) 87,5%; E) 78,5%

Yechish. Chegirma narxi mavsumiy narxdan (750000 – 300000 = 450000) 450 ming so`m kam bo`lganligi sababli, bu farq mavsumiy bahoning necha foizini topish lozim bo`ladi, ya'ni 450000 soni 750000 ning necha foizini tashkil qilishini topamiz. To`g`ri javob: A.

2. Matematik savodxonlikning ikkinchi darajasi: muammoni hal qilish uchun zarur bo`lgan aloqalar va bog`lanishni aniqlash.

Ikkinchi darajali kompetentsiyalar qo`yilgan oddiy muammolarini hal qilish uchun matematikaning turli sohalari, bo`limlari va mavzulari orasida bog`lanishlarni aniqlashni o`z ichiga oladi. Bu vazifalarni standart vazifalarga kiritib bo`lmaydi,

(cc) BY

lekin ularda ko`rilayotgan vaziyat chuqurroq matematik bilimlarni talab qiladi. Ushbu kompetentsiya darajasida o`quvchilar topshiriq shartiga ko`ra berilgan ma'lumotlarni taqdim etish va bu vazifaga muvofiq muammoni qo`yish ko`nikmalariga ega bo`lishlari kerak bo`ladi. Matematika turli bo`limlari materiallari orasidagi aloqalarni o`rnatishda o`quvchilardan tushunchalarni, shartlarni, isbotlarni, tasdiqlarni, misollarni farqlash va ularni o`zaro bog`lash qobiliyatiga ega bo`lishlari talab etiladi. Ushbu kompetentsiya darajasi shuningdek turli belgilar bilan rasmiylashtirilgan tilda yozilgan yozuvlarning mazmunini tushuntirish va sharhlash, ularni umumiy tilga tarjima qilish qobiliyatini ham o`z ichiga oladi. Ushbu kompetentsiya darajasiga bog`liq bo`lgan vazifalar nuqtai nazaridan, o`quvchilar vaziyatning o`ziga xos 63

For several years, the teaching of foreign languages in secondary schools of our country has been organized from the first grade, and it opens the door to great opportunities for young people. They can go to any country to study or work. They share their experience and contribute to the development of our country. It is also advisable to add. Why shouldn't we study when we have such opportunities in our

(cc) BY

country? Why shouldn’t we take advantage of the opportunities? Learning a foreign language is like knowing another world.

By studying the language of all developed countries, studying their political and economic reforms, we can learn the best qualities and thus contribute to the development of our country. When learning a foreign language, it is important to be fluent in both spoken and written language. Because there are times when you can't express yourself fully. Then a written speech will help you.

The influence of written speech is stronger than that of oral speech. We can try this: Take a piece of paper and write something like, "You're so beautiful today" or "You're so open today," and then tell someone orally what you've written before. try, and then give the paper. Watch the change in his face as you read the paper, and you'll be convinced. Do you see why we need to study writing? In addition, learning to read and write a foreign language is the basis for quick and perfect learning.

As mentioned above, written speech is the expression of language through text. Written speech is a system of written symbols or images adopted in a particular language and used to communicate between people. Written speech is the true beginning of the cultural development of human society, one of the most important factors in the process of long and complex evolution of mankind. Written speech allows us to know our history perfectly, to understand it more clearly.

In addition, we will be able to expand and strengthen our relationship through written communication. Again, the unification of peoples as a state expands and complicates the scope of verbal communication; trade expands, military, political and other agreements are concluded with other nations and states; laws emerge and become stronger; religious views and various other forms of ideology are formed, and the need for peoples to know their own history increases. In this context, written speech becomes a necessity. Language is inextricably linked with writing. It is not possible to learn a language without learning the script of that language, or vice versa, without knowing the language to which the script belongs.

So, if we want to learn a foreign language and get to know the world through it, we have to learn the spelling of the language we want to learn. The creation of the record has given us so many opportunities. Most importantly, it has allowed us to pass our history from generation to generation. It also allowed us to say our words and gestures, which are difficult to say to our loved ones.

The breadth and power of writing have long been known. When writing first appeared, people who began to feel its potential interpreted it as "writing magic," meaning "writing has magical powers." Before it took its present form, I think writing has come a long and arduous way in history and has truly magical power. You can see proof of this when you read a letter from someone.

(cc) BY

So learning to read is important in our lives. So, let's explore new worlds for ourselves, taking advantage of the opportunities created in our independent country, that is, learning a foreign language is like exploring another world. By studying the life and way of life of the countries of the world and reflecting their best qualities, we will be able to contribute to the further development of our country.

References

1. State educational standards of the system of continuing education of the Republic of Uzbekistan 1.0. 1998; 1.1. 1992; 11.57; 2008.

2. Nizomiddin Mahmudov "A brief dictionary of the history of writing" (reference) 1990 Tashkent;

(cc) BY

BOSHLANG'ICH SINF FANLARINI O'ZARO INTEGRATSIYALASHTIRIB O'QITISHNING AHAMIYATI

Roziqova Dilorom Ramazonovna
Roziqova Munira Pardayevna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani, 26-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich snif o'quvchilarini integratsiyalashtirilgan o'qitish va uning o'ziga xos xusiyatlari haqida so'z yurutilgan.

Kalit sozlar: Integratsiya, kristallografiya, konstruksiyalash, mikroolam, emotsional, axloqiy-estetik.

Boshlang'ich maktab ta'Iim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalish masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar taslikil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'z-gartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda so'z faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatnuig birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan.

Keyingi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qihsh va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmoqda. Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligi to'g'risida xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina

(cc) BY

mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo'nalishiga ega bo'lgan integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida xabar beradi.

Hozirgi kunda integratsiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Birinchisi, bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish. Shu masalaga 1988-yilda chop etilgan xalqaro pedagogik tajriba yakunlariga bag'ishlangan tadqiqot foydali manba ko'pgina xorijiy mamlakatlar boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyati inlegratsiyalangan kurslar bo'yicha ta'lim bo'lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, ilm, san'at bilan suhbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir.

Kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish muhimdir. Bu savod o'zida odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni qamrab oladi.

Kursning maqsadidan yana biri — o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi xususida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va ijtimoiy dunyosi, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgina emas, balki tasvirli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning uimimiy ko'rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kurs ta'limi kichik maktab o'quvchilarining parallel ravishda asosiy fanlarni o'rganishlari hamda o'rta maktab ta'limida qulay sharoitlar yaratilishga xizmat qiladi.

Kursning tuzilishi qanday? Kursning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarni belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo'yilgan g'oyalar (flkrlar)ning gorizontal harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinfdan sinfga), bunda bir mavzu bolaning o'sishiga qarab, murakkablashib boradi. Integrativlik insonning olam bilan o'zaro aloqalarida aks etuvchi mavzularga kiritilgan: bola idrokida noma'lum bo'lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer kurrasi, katta bo'shliqlar va vaqt qadri). Yaqin olam (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o'simlik dunyosi, ona-Vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati). Insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, sivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari, insonning ichki dunyosi); madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari).

(cc) BY

Shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlari, tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochish — kurs tizimining asosiy mantiqidir. Kurs oddiylikdan murakkablikka, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chaqqonlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi. Bola dunyo yaralishining «g'ishtchalari» bilan tanishadi, olamning boshlanishga, insonning yerda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlar, sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar jumboqlarini ochish yuzasidan flkrlaydi, o'quvchi makon va zamon bo'ylab sayohatga otlanadi. Shunday qilib, bola har kuni ochishi kerak bo'lgan olamning go'zalligi va turli-tumanligini his qiladi.

Murakkab dunyoqarashlar ilmiy, badiiy g'oyalar bola tushunishi uchun qulay, tasvirli mavzularda o'z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim shu kursning o'ziga xos xususiyatidir. Bunday o'yinlarga yondashish 6-10 yoshdan boshlanadi. Bu hol ularni turli o'yin orqali murakkab bilim orttirish, badiiy, axloqiy masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Yil va chorak mundarijasiga turli ertak qahramonlari («Zumrad va Qimmat», «To'g'ri va egri», «Bo'ri bilan tulki», «Tulki bilan turna», «Kichik shahzoda», «Karlson», va boshq.)ni kiritilishi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Ular mavzudan mavzuga yetaklab, yangi narsalarni bilib olishga yordam beradi.

Sinfda shaxsga moslangan yo'nalishga ega faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat beriladigan qilib ishni tashkil etish nazarda tutiladi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda «O'z yulduzingni yoq», «Guldastada sening guling», «Sen sevgan kitob» kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat-e'tibor birgina bolaga qaratiladi (masalan, tug'ilgan kuni munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta guldasta bayram egasiga yoqadigan qilib boyitiladi).

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyallariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyaInr yozish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biron asbob yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyotning turli yo'llari bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashg'ulotlar bolalarda ko'rish va eshitish, materiallar sifatini ushlab ko'rib, ajrata bilish qobiliyati, sezish tuyg’usini (hid va ta'mni ajrata olish) rivojlantirishga yordam beradi. Ovchilar», «Hayvonlar», «Izquvarlar»ni o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta olishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanish yo'lidir. Bunga yorqin tasvirlarga, san'at asarlari, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin.

(cc) BY

Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional nnmosabatni rivojlantirish lozim. Bunga ertaklar o'qish, turli sahna ko'rinishlari qo'yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq harakat qilishga, o'z holatini hatti harakatlari, imo-ishoralar, raqs orqali ko'rsatib berishga unkon beruvchi mashqlarni bajartirish lozim.

Dars o'tishdagi asosiy shart-sinfda zarur, mos muhitni varalish: polga gilam solish, partalar o'rniga qulay bo'lgan stol va slullar o'rnini almashtirish. Mashg'ulot jarayonida bolalar o'z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusida «Devordagi suratlar», «Hayvonot va o'simliklar dunyosi» paydo bo'ladi. Bularni o'quvchilarning o'zlari o'ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma'lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan foydalanish mumkin.

Ko'pincha vaqtni sinfdan va maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Muzey va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko'chalarda o'tiladigan darslar odatiy bo'lib qoladi.

Integratsiyalangan kurs ustidagi ishlar davom etadi. Tanlangan yo'l juda qiyin va mutlaqo shubhasiz emas. Murakkab muammolarni hal qilish lozim. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10 -12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. Shunday qilib, o'qish, yozish va og'zaki nutq «til san'ati»ga, tarix, geografiya, fuqaroshunoslik, jamiyatshunoslik, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, tabiatshunoslik va shu kabilarga birlashtirildi.

Integratsiyaning bunday usulidan to'liqsiz va to'liq o'rta maktablarda qo'llaniladi. AQSHdagi o'rta maktablarning yuqori sinflarida fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi «Yerni o'rganish» fani kiritilgan. Chexiya, Slovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan «Fuqoro tarbiyasi» deb nomlangan kurs yuqori sinflarda kiritilgan.

Shunday qilib, bir qator mamlakatlar tajribalari ko'rsatishicha, integratsiyalangan kurslar qulay shakl bo'lib qoldi. Maktabda o'qitiladigan fanlarni bir butun tizimli ravishda o'qitish imkoniyati tug'ilganga o'xshaydi. Lekin shunday savol tug'iladi: bu kursni qanday o'qituvchi o'qitishi mumkin? Bunday kurslar yaratilishining o'zi yuqori malakali jamoani talab qiladi. Zero, uni o'qitish uchun yuqori malakagina emas, balki keng bilimdonlik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva B. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida). Ped.f.dokt. ... diss. Toshkent. – 2006.

2. Abdullayev Yu.N. Xorijda oliy ta’lim: tajriba va taraqqiyot yo‘nalishlari.- Toshkent: "O‘zbekiston”, 1999.

(cc) BY

3. Abdullayeva Q., Safarova R., Bikboyeva N. Boshlang‘ich ta’lim kontsepsiyasi. // Boshlang‘ich ta’lim, 6-son. 1998.

4. Abduraxmonova N., O‘rinboeva L. Matematika. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘zbekiston. – 2012. 206 b.

5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- 74 Toshkent: TDPU,

SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVDA TASHQI MUHITNING ORNI

Absalomov Erkinboy Ulugbek o`g`li
Soliyev Shahzodbek Baxtiyor o`g`li
FarDU

Annotatsiya: Ushbu maqola indivitni shaxs sifatida ijtimoiy muhitga moslashishi va bu muhitdagi tutgan orni xaqida.

Kalit so'zlar: indivit, shaxs, muhit, ijtimoiylashuv, muhit, K.Markning F.Attor

Аннотация: Статья посвящена адаптации человека как личности к социальной среде и его роли в этой среде.

Ключевые слова: индивид, человек, среда, социализация, среда, Ф.Аттор К.Марка.

Abstract: This article is about the adaptation of the individual as a person to the social environment and his role in this environment.

Keywords: individual, person, environment, socialization, environment, K.Mark's F.Attor

"Kishilar ozligini bilishi uchun u ozining davlatini, mamlakatini bilmogi zarurdir, ana shundagina u ozini ana shu davlatining, jamiyatining, madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini anglab yetadi"

Platon

Hayotimiz mobaynida qanchalik biz komil inson darajasiga yetishga va doymo ozimizni ijtimoyi muhitga yaxshi qirralarimizni korsatishga urinamiz. Shu qatorda biz osib ulgayib yani individdan shaxsga qadam qoyar ekamiz biz koplab bosqich va yolarni bosib otishimizga togri keladi.

Bugungi kunda insonlar orasdagi muloqot ma`daniyati va ijtimoiy muxit madaniyatga moslashishni tatqiq etayotgan olimlar tobora kopayib kelmoqda. Bunga asosiy sabablarda bir sifatida insonlarn ongni tez suratlarda rivojlanib borayotgaligini olishimiz mumkun.

Shaxs shakilanish davrida shakilanar ekan, u avvolo ozi istiqomat qilayotgan ijtimoiy muxitga moslashishni talab etiladi. Aslida shaxsning ijtimoiylashu, muhitga moslashish nima?. Shaxsning ijtimoiylashuvi - bu jarayon individ tomonidan u shaxs bo'lib yetishadigan hayot uchun muhim bo'lgan psixologik sifatlar, bilim, ko'nikma va nutqni va ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishdir. Nutq tufayli o'z navbatida shaxs o'ziga tegishli va uni o'rab turgan odamlar bilan muloqot qiladi. Ijtimoiylashuv — bu individ tomonidan odamlar yaratgan taraqqiyotni anglashi, ijtimoiy hayot tajribalarini o'rganish, tabiiy mavjudlikdan ijtimoiy mavjudlikka o'tish, individdan shaxsga aylanishdir. Ijtimoiylashuv o'z ichiga ma'naviy hayot me'yorlari, insonlarning

(cc) BY

madaniy munosabatlari, odamlar ichidagi xulq me’yorlari, shuningdek, ijtimoiy rollar, faoliyat turlari, muloqot shakllarini oladi [2]. Chet el psixologi K.Markning so'zi bilan aytganda, “inson shaxsining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan iborat” ligiga etiroz bildirib bo'lmaydi. Shaxs ijtimoiy mavjudod bo'lish bilan birga, o'zida tabiiy, biologik tuzilish belgilarini saqlab qoladi.[3]

Bundan tashqari Orta Osiya mutafakri F.Attor, quyidagi fikrlari aynan ijtimoiy muhitning shaxsga tasiri masalasini oydinlashtirishga qaratilgan desak, xato bolmaydi. «Ko'zingni ochib qaragin, - dunyo xuddi qaynab turgan qozonday jo'shib-toshib turibdi, sen ham shu qozonning ichida qaynayapsan. Ostingda olov lovillab turibdi, shu sababli tinmay qaynab turibsan, dunyo bilan birga. Bu qudrat bor ekan, qaynash davom etadi. Ammo asosiy maqsad, bu qozonda pishib yetilish va jonni jonga qoshishdir. Shunda quduqdan qutulib chiqan bo'lasan, ilohiy saodatda o'zligingni qayta namoyon qilasan. Shunda kishi: «Makon va lomakon birlikda ko'rdim, jon va jismni uzviylikda ko'rdim», deya oladi bemalol».[3]

Allomaning ushbu qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, inson ijtimoiy muhitsiz hech kim emas. U doimo xohlaydimi-yo'qmi, muhit bilan hamnafasdir. Asosiy maqsad esa «bu qozonda pishib yetilish va jonni jonga qo'shish», yani hayotdagi tarixiy o'zgarishlar davomida shakllanish hamda muhit talablari asosida o'zining shaxsiy individualligini namoyon qila olishdir.

Demak indivitlar shaxs sifatida shakilanishi uchun ijtimoyi muhitni orni juda kata ekaligini olishimiz mumkun ekan. Xulosa ornida shuni keltirish keraki Insonning intim faoliyati uning shaxsiy ishidir. Bu xususiyatlar □shaxs□ tushunchasining tor ma’nosini anglatadi. Biroq insonning kitob o‘qishi, mustaqil hunar egallashi, turmush qurishi, bola tarbiyalashi kabi intim ishlari ham ijtimoiy xarakter kasb etadi. Shaxsning ijtimoiy faoliyati bilan xususiy hayoti shu tufayli chambarchas bog‘liq[1]. Demak har qandey individ ijtimoyi muhit tasirda yetuk shaxs, komil inson bolib tarbiya topishi, oz qiziqishi va imkoniyatlarin yolga qoya olar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: Учебник для вузов // Автор: В.М.Каримова. - Т., 2012. - 190 с.

2. IJTIMOIY PSIXOLOGIYA: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. Muallif: V.M.Karimova. — T.: 2007. — 176 b.

3. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qolanma. N.Ismoilova, D.Abdullayeva; Ozbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus talim vazirligi. Toshkent: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013 yil. 168 b.

(cc) BY

ЛИСОНИЙ ҚОЛИП ВА НУТҚИЙ ҲОСИЛА

Бобокалонов Рамазон Ражабович
boboramazon@mail.ru
Паризод Фарходова Нодиржон қизи
Бухоро Давлат Университети

Аннотация: мазкур мақолада систем-структур тилшунослик асосида лисоний қолип ва нутқий ҳосилаларнинг лингвопарадигматик хусусиятлари, фалсафий категориялар, тил ва нутқнинг дихотомик фарқланиши юзасидан илмий мушоҳада юритилган.

Калит сўзлар: систем-структур тилшунослик, лисоний қолип, ички структура, ташқи структура, элемент, дихотомия, ташкиллаштириш, бошқариш, назорат қилиш, система, структура, элемент, фалсафий категориялар, моҳият ва ҳодиса, мазмун ва шакл, сабаб ва оқибат, зарурият ва тасодиф, имконият ва воқелик, умумийлик ва хусусийлик, бутун ва қисм, структура

Аннотация: Данная статья представляет собой научное наблюдение на основе системно-структурной лингвистики по лингвопарадигматическим особенностям языковых основы и речевых продуктов, философским категориям, дихотомическим различиям языка и речи.

Ключевые слова: системно-структурная лингвистика, языковой паттерн, внутренняя структура, внешняя структура, элемент, дихотомия, организация, управление, контроль, система, структура, элемент, философские категории, сущность и явление, содержание и форма, причина и следствие, необходимость и случайность, случайность и реальность, общность и специфика, целое и часть, структура

Материк оламнинг бир бурчагида содир бўлган ҳодиса макон ва замонда бошқа бир бурчагида такрорланишини инкор этиб бўлмайди. Бу ҳолат тил ва жамият қонуниятлари учун ҳам меъёрий жараён ҳисобланади. Структур тилшунослик Европада туғилиб, Америкада ривож топди. Марказий Осиёга ҳам бу лингвистик оқим ўтган асрнинг 80-йилларидан бошлаб рус тилшунослиги орқали кириб улгурди.

Систем-структур тилшунослик тил ва нутқ ҳодисаларига яхлит бир бутунлик белгилар системасидан иборат ҳодиса сифатида қарайди, уларнинг мазмуни ва шакли ўртасидаги муносабатларнинг назарий асосларини такомиллаштириб, лисон//нутқ дихотомиясини тизимий алоқадорликда ўрганади. Унинг олдидаги мақсад ҳар қандай тилнинг амалий жиҳатдан ўрганилиши учун қулай шарт-шароит яратиш, нутқ имкониятларини амалий

(cc) BY

жихатдан ривожлантиришдан иборат. Бунинг учун ўрганилаётган тил энг аввал тизимга солиниб қаралади, бошқа тиллар билан қиёсланиб, қиёсий типологик хусусиятлари ойдинлаштириб олинади. Тил, жамият ва табиатдаги боғлиқлик диалектик қонуниятлар асосида қараб чиқилади ва тизим қоидаларга бўйсундирилади. Лексик, морфологик ва синтактик сатҳлар яхлит тизим остида тадқиқ этилади.

Билиш назариясига мувофиқ буларни алоҳида-алоҳида аниқлаштириб олишимиз муҳимдир. Тизим, яъни *Система, структура, элемент* фалсафанинг муҳим категорияларидан бўлиб ҳисобланади. Система – грекча сўз бўлиб, мантиқий маъноси бутунлик, яхлитлик, элементлардан ташкил топган бирикма, деган маъноларни англатади. Система категориясининг мазмуни, уни ташкил қилган элементларнинг структуравий муносабатларига мос келади [1, 3-341] ."

Системалаштириш назарий фаолият сифатида таркибий элементларни мантиқий изчил тартибга келтиришни тақозо этади. Тизим, тил ва нутқ дихотомияси ҳамда нутқий ҳосилалар тил фалсафаси учун муҳим саналган ўзаро боғланган занжир ҳисобланади. Хусусан, *системалаштириш*, яъни аҳамиятига кўра *туркумлаштириш*, элементларнинг функционал фаолияти учун муҳим фалсафий методологик аҳамиятга эга. "Инсоннинг борлиқни билиш фаолияти система структурасидаги элементларнинг мавжудлик ҳолати ва ривожланиши бевосита объектив қонуниятларни ўрганиш, уларни мақсадга мувофиқ ташкил қилишга боғлиқ. Яъни булар инсоннинг *ташкиллаштириш, бошқариш, назорат қилиш* фаолиятлари самарадорлиги ва мақсадга мувофиқлиги турли категориялардан унумли фойдаланиши билан характерланади. Система — нарса ва ҳодисаларнинг боғланишлари, алоқадорлиги ва муносабатининг тартибли тадрижий ривожланишини ифодалайди. Структура эса, нарса ҳодисалар боғланиши, алоқадорлиги ва муносабатлари тизимининг макон ва замондаги бирлигини таъминлайдиган системанинг мавжудлик ҳолатидир." [1, 3-341]

Система ва структура бир-бирини тўлдирадиган тушунчалардир. Шунинг учун замонавий ўзбек тилшунослигида систем-структур тушунчаларига тез-тез мурожаат қилиб турилади. Умуман, структура (лотин тилида тузилиш, тартиб деган маънони англатиб), системани ташкил қилган элементларнинг нисбатан турғун боғланиши, алоқадорлиги ва муносабатидир. Ҳозирги мавжуд фалсафий қарашларда структурани системанинг аспекти сифатида қараш устувордир. Системани ташкил қилган элементларнинг структуравий тузилиши унинг мавжудлик ҳолатини ҳамда ривожланиш истиқболларини белгилаб туради.

Борлиқни ташкил қилган элементларнинг муносабатлари, макон ва замон хусусиятларига қараб, «ички структура» ва «ташқи структура»га ажратилади. Элемент системани ташкил қилган структуранинг ўзаро боғланиш,

(cc) BY

алоқадорлик, муносабат жиҳатларини таъминлайдиган нисбатан мустақил таркибий қисмидир. Жамиятда элемент ижтимоий муносабатларнинг конкрет кўринишлари тарзида намоён бўлади. Масалан, жамиятни яхлит система деб оладиган бўлсак, ундаги элемент алоҳида индивидлар, ижтимоий қатламлар, табақаларнинг онгли муносабатлари тарзида кўзга ташланади.

Шуни алоҳида таъкидлаш кераки, инсонларнинг нарса ҳамда ҳодисаларга муайян манфаатлари ва эҳтиёжларига кўра ёндашишига қараб, ҳар бир элементни нисбатан мустақил система сифатида олиб қараш мумкин. Жумладан, жамият ва тилни ҳам. Масалан, тил жамият структурасида, уни ташкил қилувчи муҳим элементларнинг бири ҳисобланади, лекин тилни, махсус ижтимоий ҳодиса сифатида алоҳида олиб таҳлил қиладиган бўлсак, унинг ички элементлардан иборат мустақил системалигини кўрамиз. Шунга кўра, тил ҳам ўзига хос тизим, яъни *система, структура ва элемент* нисбий тушунчалар бўлиб, категориялар сифатида, унга бўлган муносабат доирасида конкретлашади. Шунинг учун «система», «структура», «элемент» каби фалсафий категориялар нарса ва ҳодисаларни билишга системали ёндашиш, структуравий таҳлил усулларининг умумметодологик асоси бўлиб ҳисобланади.” Элементлар системани ташкил қилишдаги структуравий аҳамиятига кўра: муҳим ва муҳим бўлмаган, асосий ва асосий бўлмаганларга ажратиб ўрганилади. Чунки ҳар қандай конкрет унсур, муайян системада макон-замон хусусиятларига кўра, ўз аҳамиятига эга бўлади. Буни фалсафа фанидаги жуфт категориялар: «моҳият ва ҳодиса», «мазмун ва шакл», «сабаб» ва оқибат», «зарурият ва тасодиф», «имконият ва воқелик», «умумийлик» ва «хусусийлик», шунингдек, «бутун», «қисм», «структура», «элемент» категориялари орқали аниқлаб олиш мумкин ва булар ўзаро узвий боғлиқдир.

Швециялик тилшунос олим Фердинанд де Соссюр ва унинг издошлари Ш. Балли, А. Сешевел, Л. Теньер ва бошқалар томонидан француз тил фалсафаси таълимоти яратилди. Бундан Европа ларзага келди. Романистикадан германистика сари бу оқимга қарши чиқувчилар пайдо бўлиб, Фердинанд де Соссюрнинг дунёга танилишига сабабчи бўлишди. Аслида у илк бор француз систем тилшунослиги ҳақида гап бошлаган ва “Маърузалар”ини асосли тарзда тушунтириб бера олган бўлса-да, у бирон нарсани илмий оммага эълон қилмаган эди. Унинг бу ғояларига пойдевор қуришда унинг вафотидан кейин худди ана шу издошлари сабаб бўлишди [3]. Фердинанд де Соссюр немис файласуф олимлари Гегель, Кант, Боп, Вилгельм фон Ҳумболдтларнинг билиш назарияси, тил ва тафаккур нуқтаи назаридан гуманистик қарашларидан илҳомланди [4, 154; 5, 201-245]. Уларнинг лингвистик ғоялари асосида лисон//нутқ фарқияти - “белги, белгиланувчи ва белгиланмишлари” (учлик ассимертияси – “signification, signifiant, signifié”) га аниқликлар киритди [6].

(cc) BY

Бунда тил тизим асосида ташкил топган яхлит бир бутунлик, унинг унсурлари ташкил этувчилик тамойилига асосан ана шу бутунлик доирасида ўзаро алоқадорликда ўрганилди. Шу аснода, лисон//нутқ ҳодисалари диалектик қонуниятлар методологияси асосида ойдинлаштирилди.

Маълумки, диалектик қонуниятга асосан тил айният, нутқ эса ўзгарувчан ҳодисадир. Тил ҳодисалари ўлчами меъёрий бўлиб, нутқ ҳодисалари ўлчами номеъёрийдир. Тилдан ҳамма умумий фойдаланади, унинг қонуниятлари давлат ва жамият томонидан тартибга солинади. Нутқ эса индивидуал ҳодиса бўлиб, муайян ва маълум қонун-қоидаларга бўйин сўндирилади ва тартиб-қоидага мувофиқ мулоқот жараёнида хусусий аҳамият касб этади.

Ҳар бир нутқий ҳосила ўз муаллифига эга. Нутқ ҳосиласи микротекстдан, макротекст - бадиий асарга қадар индивидуал ҳодисадир. Тил жамият онг-тафаккури маҳсули, нутқ эса шахс маҳсулидир. Инсоннинг нутқ ифодаси унинг онги, дунёқараши, ақл-идроки даражаси маҳсулидир. Тил тизимини ўрганишни чеклаб қўйиб бўлмайди. Шахс ўз ҳаётида бутун тизим ичида яшар экан, у оламни билиш ва тушунишга интилади. Демак, нутқ онгли меҳнат натижасидир. Онг эса мия фаолиятининг соғлом физиологик жараёнидир. Онг нафақат ақл-идрокни, балки инсон қобилиятини юзага чиқишига ёрдам беради. Тил тизими дунёни мулоқот асосида билиш учун воситадир. Тил тизими ва унинг сигналлари асосида шахс тафаккурини шакллантириш осон кечади.

Тил сатҳи тизимга солиб ўрганилар экан, у орқали оламни тўғри англаш осон бўлади. Тизим асосида энциклопедик луғатлар яратилади. Тил инсон учун инъом этилган неъмат. Инсонни шахс сифатида тасдиқловчи ҳужжат ҳисобланади. Кўриб ўтганимиздек, тил ва нутқ ҳодисаларини фалсафий категория билан қуйидагича изоҳлаш мумкин: тил имконият, нутқ натижа. Тил умумийлик, нутқ хусусийлик//алоҳидалик. Тил сабаб, нутқ оқибат. Тил замон, нутқ макон. Тил мазмун, нутқ шакл. Тил моҳият, нутқ ҳодиса ва ҳ-зо.

Ҳар ким ўз қобилияти доирасида ўз нутқининг муаллифидир. Тил ўзини англаш учун берилган имконият. Имконияти чекланган шахс билан, ақлан қобилиятли етук шахс ўртасида тилдан фойдаланиш амалда бир меъёрда кечмайди. Ҳар бир инсон маълум бир шароитда ўз нутқини яратади. Шунинг учун баъзан шоирлар камтаринлик кўрсатиб, шеър яхши ёзилган бўлса ҳам: «Буни яхшироқ ёза олмаганман» демоқчидек, «Бу шеърни ёшлик чоғимда ёзганман» дейди. Бу мисолда фикр юритувчи билан, маҳсулотни ўзлаштирувчи ўртасида ҳам кескин фарқ юзага чиқади. Демак, инсон қарашлари реализация ва истеъмол қилиш ҳолатига кўра кун сайин ўзгаради. Фикр доираси ўсади. Шулардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, муайян синтактик лисоний қолиплар мавжуд бўлмаган жойда нутқ кўркамлиги бузилади. Нутқнинг намоён бўлиши лисоний қолипга боғлиқ. Чунки нутқ тил қолипи, онг ва шуур бирлиги

(cc) BY

ҳосиласидир. Ўзбек систем-структур тилшунослигида лисоний [WPm] ва [W^P]қолиплари ўйлаб топилган шартли лисоний қолип ҳисобланиб, булар нутқнинг лисоний белгиларидир. “Бу лисоний қолипда [NMTP] – кесимлик маънолари мужассам. [NMTP] – кесимлик маъноларини тасдиқ/инкор, майл/муносабат, замон ва шахс/сон [W], яъни атов бирлиги кесимлик кўрсаткичлари [қисқ. АБКк] ташкил этади”[7]. [WPm] ва [W^P] қолипли нутқий ҳосилаларнинг кесимлик кўрсаткичларида [ABKk]нинг 1) M -модал, 2) N - тасдиқ-инкор, 3) T - таклиф-ишора ва 4) P – ундов маънолари мужассам. Содда қилиб айтганда, бу белгилар нутқимизнинг мулоқот қилиш учун тайёр расмларнинг «негатив тасвирлар»ини ҳосил қилади. Бу «негатив тасвир”дан минглаб, ҳатто миллиардлаб расм чиқарса бўлади. Аммо негативдан ташқарида турган инсон шаклини яратиб бўлмайди. Зеро, негатив хусусий инсон қиёфасининг қолипидир.

Тасвирдан бўлак инсон нутқини лаборатория асосида аниқласа бўлади. Навоий билан Бобур услуби қанчалик яқин ва ўхшаш бўлмасин, ғоя ва нутқий мотивларда фарқ сезилади. Бадиий колорит ва пафос ўлчамлари фарқли.

Синтактик лисоний қолипларни фаҳм босқичида тушуниш учун нутқий ҳосилаларнинг формуласига эътибор қаратамиз. Қаранг:

1) $x^2 \cdot [ABKk] =$ ([WPm]^m = $xM = 4(\text{MNTP}).\frac{\text{W}\pm\sqrt{M^2-3(NPT)}}{100} =$ MNTP(4x25)$4X^2$ (M^{25}+ N^{25}+T^{25}+P^{25}) $\cdot$ 100%;

2) $x^2\cdot$ $[ABKk] =$ ([WPm]^n = $xN = 4(\text{NMTP}).\frac{\text{W}\pm\sqrt{N^2-3(MPT)}}{100} =$ NMTP(4x25)$4X^2$ (N^{25}+M^{25}+T^{25}+P^{25}) $\cdot$ 100%;

3) $x^2 \cdot [ABKk] =$ ([WPm]^T = $xT = 4(\text{TMNP}).\frac{\text{W}\pm\sqrt{T^2-3(MNP)}}{100} =$ TPMN(4x25)$4X^2$ (T^{25}+M^{25}+ P^{25}+N^{25}) $\cdot$ 100%;

4) $x^2 \cdot [ABKk] =$ ([WPm]^p= $xP = 4(\text{PMNT}).\frac{\text{W}\pm\sqrt{M^2-3(MNT)}}{100} =$ PTMN(4x25)$4X^2$ (P^{25}+T^{25}+M^{25}+N^{25}) $\cdot$ 100%;

[W^P] қолипли нутқий ҳосилаларда бу маънолар сўз таркибида бўлгани учун бирмунча фарқлидир:

1) $x^2\cdot$ $[ABKk] =$ ([W^P]^m =$xM = 4(\text{MNTP}).\frac{\text{W}\pm\sqrt{M^2-3(NPT)}}{100} = X(\text{MNTP}) = 4X^2$ ≈(M^{50}+ N^{25}+T^{15}+P^{10}) $\cdot$ 100%;

2) $x^2\cdot$ $[ABKk] =$ ([W^P]^n=$xN = 4(\text{NMTP}).\frac{\text{W}\pm\sqrt{M^2-3(NPT)}}{100} = X(\text{NMTP}) = 4X^2\approx$ (N^{50}+ M^{25}+T^{15}+P^{10}) $\cdot$ 100%;

3) $x^2\cdot$ $[ABKk] =$ ([W^P]^t =$xT = 4(\text{TPMN}).\frac{\text{W}\pm\sqrt{M^2-3(NPT)}}{100} = X(\text{TPMN}) = 4X^2 \approx$ (T^{50}+ P^{25}+ M^{15}+ N^{10}) $\cdot$ 100%;

(cc) BY

4) $x^2 \cdot ABKk] = ([W^P]^p = xP = 4(PTMN).\frac{W \pm \sqrt{M^2 - 3(NPT)}}{100} = X(PTMN) = 4X^2 \approx (P^{50}+T^{+25}+ M^{15} + N^{10}) \cdot 100\%$.

Синтактик лисоний қолиплар моҳиятини умумий ҳолда олиб қаралганда ҳар бир X лексема нутқ имкониятларина қараб, кесимлик кўрсаткичини қабул қилади ва ($x^2 \cdot [ABKk] = [WPm]$) ёки ($x^2 \cdot [ABKk] = [W^P]$) қолипидан жой олади. Якуний натижа, мазкур формулада система, структура, элемент ва ҳар бир қолип имкониятлари доирасида муайян бир лексик бирлик 100 % нутқий ҳосила бўлиши кўрсатилган.

Хулоса қилиб айтганда, систем-структур тилшунослик тилнинг барча узвларини ўзида бирлаштириб яхлит бир бутунлик, тизим сифатида ўрганишнинг энг афзал ва қулай тадқиқ усули ҳисобланади. Бу йўналишда тил система, структура, элементлар мажмуидан иборат яхлит бутунлик, нутқ эса рамзлар, шунингдек, алгебравий ҳосила ва квадрат тенгламалар, шахс ва жамият ўртасидаги коммуникатив муносабатлар жараёнининг ҳосиласи эканлиги ойдинлашади.

Фойдаланган адабиётлар

1. Фалсафа асослари. Тошкент Ўзбекистон» нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005 www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Malmberg Bertil. Structural Linguistics and Human Communication, 2e éd.1966.

3. Malmberg Bertil. Les Nouvelles tendances de la linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972.

4. Гумбольд В. Избранные труды по языкознанию. – М.: 1984. С.154.

5. Гегель Г.В. Наука логики. Т - I. – М.: “Мысл”, 1970. С. 201-245.

6. Cahiers F. de Saussure, XII, 1954, p. 9-28/Cours de linguistique générale de F.de Saussure, 1957.

7. Sayfullayeva R.R. va b. Hozirgi o‘zbek tili, darslik, Toshkent – O`ZMU, 2020 3-549 b.